

SHAXSIY TOMORQA VA DEHQON XO‘JALIKLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Adizov Shuhrat Bafoyevich

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti dotsenti v.b.

Hojiqulova Mahfuza Olimjon qizi-
magistrant.

Ergasheva Sayliya Erkin qizi
Salimov Shahzod Odiljon o‘g‘li
talabalar.

Kirish: Aholi o‘zini o‘zi ish bilan ta‘minlash atamasi o‘zini o‘zi band qilish atamasi bilan bir xil tushunchaga ega ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, bu ma‘lum bir mehnat yoki faoliyat turi bilan mustaqil shug‘ullanish demakdir. Mustaqil ravishda faoliyat yuritayotgan subyektlar jamiyatimizda juda ham ko‘p lekin ularni faoliyat turi va yo‘nalishlari ajratib turadi. O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotida uy xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va shaxsiy tomorqa yer uchastkalari asosiy o‘rin tutadi. Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bozor iqtisodiyoti bosqichida uy xo‘jaliklari va tomorqa yerlari iqtisodiy faoliyatning muhim bir sub‘ekti sifatida nafaqat alohida bir xo‘jalikning qismi, balki butun mamlakatimiz aholisining iqtisodiy farovonligini ta‘minlamoqda.

Muammoning qo‘yilishi: Tijorat korxonalarini bilan bir qatorda O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotida shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari asosiy o‘rin tutadi. Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bozor iqtisodiyoti bosqichida tomorqa xo‘jaliklari iqtisodiy faoliyatning muhim bir sub‘ekti sifatida nafaqat alohida bir xo‘jalikning qismi, balki butun mamlakatimiz aholisining iqtisodiy farovonligini ta‘minlamoqda. Tijorat korxonalarini bilan bir qatorda dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalari xo‘jaliklari barcha mikro va makroiqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning 2016 yilning 14 dekabr kuni Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida xalq bilan yanada yaqin bo‘lish, aholini tadbirkorlikka jalb qilish, shu orqali ularning turmush farovonligini yanada oshirish borasida so‘z yuritdi, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash maqsadida aholiga tijorat banklari tomonidan imtiyozli foizlar asosida kreditlar berish keng yo‘lga qo‘yildi. Unga ko‘ra “Oddiy aholini tadbirkor qilish” shiori ostida aholini uy xo‘jaliklari va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari faoliyatiga yanada kengroq jalb qilish, ularning bu boradagi bilim, tajriba va ko‘nikmalarini oshirish, tashkiliy hamda moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasida tijorat banklari tomonidan amaliy ishlar jadal sur‘atlarda olib borilmoqda[1].

Prezidentimizning “Tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida: Qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalardagi yangi loyihalarni tashkil etish hamda mavjudlarini kengaytirish, tomorqa yer egalariga yer uchastkalaridan samarali va oqilona foydalanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik

tashabbuslarini rag'batlantirish, shuningdek, ijtimoiy zaif qatlamlar bandligini ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan va unga ko'ra:

Tomorqa yer uchastkalari samaradorligini oshirishni hamda qishloq xo'jaligi kooperativlari a'zoliciga badal to'lash uchun ishsiz, kam ta'minlangan va kambag'al oilalarga subsidiyalar ajratishni moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi

Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi hisobidan bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga 50 mlrd so'm miqdoridagi mablag'lar ajratildi.

2020-yil 20-maydan boshlab Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi miqdorda subsidiyalar ajratiladi:

a) aholi bandligiga ko'maklashish markazi, yetkazib beruvchi tashkilotlar va tomorqa yer egalari o'rtasida tuzilgan uch tomonlama shartnomalar asosida:

yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha;

sug'orish vositalari xarid qilish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha;

urug'liklar va ko'chatlar sotib olish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha;

b) qishloq xo'jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritishi uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha. Bunda:

qishloq xo'jaligi kooperativlari baliqchilik, quyunchilik, parrandachilik, asalarichilik, meva-sabzavotchilik, uzumchilik, tikuvchilik, hunarmandchilik va boshqa ilg'or sohalarda tashkil etiladi;

qishloq xo'jaligi kooperativlariga ishsiz fuqarolar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari, tashqi mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslar hamda kooperativ faoliyati yo'nalishi bo'yicha tajribaga ega yetakchi tadbirkorlar birlashtiriladi[3].

Tadqiqot uslubi: Hozirgi vaqtda dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarning rivojlanishini boshqarish va qo'llab-quvvatlash haqida ko'pgina qarashlar mavjud. Ba'zi iqtisodiy o'sish va aholining real daromadlari bilan bog'liq o'sish, ham shahar, ham qishloq shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini kamaytirish uchun ma'lum darajada ta'sir qiladi deb ishonaman, va faqat an'anaviy qishloq xo'jaligi hududlarida ShYX qishloq aholisining daromadini oshirish shakli bo'ladi[4]. Shaxsiy tomorqa yerlari ayrim manbaalarda "Shaxsiy yordamchi xo'jalik" lar ham deb yuritiladi. Lekin ma'no va faoliyat nuqtai nazaridan yondoshadigan bo'lsak bu tushunchalar aynan bir xil. Jumladan Shapsugova, M.D ning ta'kidlashicha, Shaxsiy yordamchi xo'jalik - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha norasmiy faoliyat shakli bo'lib, u fuqaro yoki fuqaro oila a'zolari bilan birgalikda faoliyat yuritadi. Ular bilan birga yashaydi, birgalikda shaxsiy yordamchi xo'jalikda mahsulotlarni yetishtiradi, sotib olingan yer uchastkasidagi shaxsiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida uning oila a'zolari bilan mexnat qiladi. Ularning faoliyat sohasi qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Shaxsiy yordamchi xo'jalik iqtisodiyotni boshqarishda yetishtirilgan va qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari shaxsiy yordamchi xo'jalikni boshqaradigan fuqarolarning mulki hisoblanadi[4].

Xulosa: Aholi shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining oila a'zolari mehnatidan foydalanib ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, oilalarga ajratib berilgan yer uchastkasida dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish hamda oila ixtiyoridagi chorva mollarini ushlab turish hisobiga go'sht, sut va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali o'zini o'zi ish bilan ta'minlagan bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida xo'jaliklarining oila a'zolari boshqa shakldagi oila tadbirkorligi yoki yakka tartibdagi mehnat faoliyatlarini ham olib borishlari mumkin.

Ammo shaxsiy tomorqa xo'jaligi a'zolarining aksariyat qismi qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish va ularning ma'lum bir qismini uy sharoitida yetishtirish bilan bog'liq faoliyatlarni olib borishadi[5].

Aholi bandligi ta'manlash maqsadida shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jalilaridan foydalanish nafaqat qishloq xo'jaligi, balki iqtisodiyot tarmoqlari uchun han muhim omil sanaladi. Qishloq aholi punkti aholisining kasb faoliyatidan kelib chiqadigan bo'lsak avvalo hudud infratuzulmasini hisobga olish kerak hisoblanadi. Chunki shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jalilari aynan qishloq aholi punktlarida joylashgan boladi. Ular bu faoliyat orqali qator ijtimoiy va iqtisodiy ta'minotni yaratadilar. Jumladan:

- Shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jaliklarida olib borilayotgan mexnat evaziga shaxsiy mablag' va oila iqtisodini ta'minlash;

- Yetishtirilgan mahsulotni sotishdan xalq dasturxonini to'ldirish va ichki bozorda mahsulot tan narxini pasayishini ta'minlash;

- Mexnat faoliatini yuritish jarayonida 1 yillik ish stajiga ega bo'lish, va pensiya ta'minotini mustaqil tashkil etish va boshqalar.

Yuqoridagi tavsiyalardan kelib chiqqan holda aholi bandligini ta'minlash jarayonida shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jaliklarini qishloq xo'jaligi uchun naqadar muhim ekanligini anglaymiz.

ADABIYOTLAR

1.Sh.M.Mirziyoevning 2016 yil 14 dekabr kuni Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi./www.uza.uz

2.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'llumotlari 2023 y.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Toshkent sh., 2020-yil 18-may, PQ-4716-son

4.Shapsugova M.D. Крестьянское (фермерское) хозяйство и личное подсобное хозяйство: предпринимательство и самозанятость. "ПРАВО И ПРАКТИКА" jurnali 2019-yil 3-son 137-141 betlar

5.Uy xo'jaliklarini rivojlantirishning nazariy asoslari. Berdiev G'.

6.Khamidov, F. R., Adizov, S. B., Karimov, E. Q., Maxmudov, M. M., & Branch, E. B. (2021). The Role of Peasant Farms and Homestead Lands in The Development of Agriculture. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 3, 5-8.

7. Shuhrat Bafoevich, A. (2022). DEVELOPMENT OF WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF THE USE OF FARM LAND. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(11), 93–96. Retrieved from <http://interonconf.org/index.php/idre/article/view/280>

8. Bafoevich, A. S. . (2022). LEGAL BASIS OF FARMERS ACTIVITY IN UZBEKISTAN AND ANALYSIS OF THE STAGE OF ITS DEVELOPMENT. "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 112–114. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/775>

9. Sayidov, F. K., & Akhrorov, A. K. (2022, March). THE ROLE AND IMPORTANCE OF LAND MONITORING IN THE USE OF LAND RESOURCES. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 102-104).

10. Каримов, Э., Адизов, Ш., & Амирбеков, О. (2018). Составление и организация использования картограмм засоленных почв (на примере Вабкентского района). *Agroilm* (Приложение к научному журналу сельского хозяйства Узбекистана), 98-101.

11. Адизов Ш.Б. Опыт зарубежных стран по изучению деятельности фермерских

12. хозяйств // *Актуальные проблемы современной науки*. 2022. № 4 (127). С. 18-20.

13. Adizov, S. B., & Khamidov, F. R. (2022). Directions to Increase the Economic Efficiency of using Farmer Lands in the District. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 2(2), 108-111.

14. Адизов, Ш. Б. (2020). БУХОРО ВИЛОЯТИДА ТОМОРҚА ВА ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИГИ ЕРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(2).

15. Асатов, С. Р., Адизов, Ш. Б., & Нуриддинов, О. Х. (2020). Бухоро вилоятида тарқалган суғориладиган тупроқларнинг мелиоратив ҳолати. *Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси*.–Хива, 1, 69-71.

16. KHAMIDOV, F. R., & ADIZOV, S. B. (2021). PROSPECTS FOR THE USE OF HOMESTEAD LANDS. In *Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021* (pp. 250-253).

17. Bafoevich, A. S., & Muxiddinjonovich, M. R. (2020). Analysis of crops grown for the efficient use of land dehkan farms and homestead lands of Bukhara region. *Агропроцессинг*, (SPECIAL).

18. Citation S Avezboyev et al 2023 *IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci.* **1138** 012028

19. Bafoevich, A. S. (2022). DEVELOPMENT OF WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF THE USE OF FARM LAND. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(11), 93-96.

20. Yusupov, M. (2022). XO ‘JALIKLARARO VA ICHKI XO ‘JALIK YER TUZISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(3), 916-919.

21. Technology of Growing Tomatoes in Open Area and Greenhouses on the Homestead Lands and Peasant Farms Adizov, Sh.B., Hamidov, F.R., Karimov, E.Q., Makhmudov, M.M. *AIP Conference Proceedings*, 2023, 2612, 030010

22. Issues concerning the use of anti-erosion measures in land management projects Avezboyev, S., Mukumov, A., Xujakeldiev, K., Khamidov, F., Adizov, Sh. IOP Conference Series: Earth and Environmental, 2023, 1138(1), 012028

23. Adizov Shuhrat, Salimov Shahzod, Rajabov Azizbek. Bukhara Institute of Natural Resources Management. (2023). IMPROVING THE SYSTEM OF PROTECTION OF THE RIGHTS AND LEGITIMATE INTERESTS OF FARMERS, FARMERS AND LAND OWNERS . ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 1(4). Retrieved from <http://zamtadqiqot.uz/index.php/zt/article/view/81>

24. Adizov, S., Salimov, S., & Rajabov, A. (2023). ORGANIZING THE CROP ROTATION SYSTEM. Current approaches and new research in modern sciences, 2(11), 39-43.

25. Хамидов, Ф., Адизов, Ш., & Очилова, М. (2022). Socio-economic aspects of land use in farming. Основные направления стратегии земельной реформы: проблемы и решения, 1(1), 141-157.

26. Adizov, S. B. (2020). PROSPECTS FOR THE USE OF HOMESTEAD LANDS IN UZBEKISTAN. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 324-325).